

"FEEDEX PRO" MCHJ (keying o'rnlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi Rahbar: S.X.Alimboyev, va Xazorasp tuman tibbiyot birlashmasi (keyingi o'rnlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi) Nizom, asosida harakat qiluvchi Boshliq O.R.Satibaldiyev (ikkinci tomon dan, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Sotuvchi Sotib oluvchiga qoyida kursatilgan miqdor va narxda mahsulot yetkazib berish majburiyatini oladi, Sotib oluvchi esa uz navbatida mahsulotni qabul qilib olib haqqini to'lash majburiyatini oladi:

Mahsulot nomi	Birlik O'lchami	Miqdori	Narxi	Qiymati
Комплекты постельного белья	Komplekt	500	148000	74000000
Одеяло	Dona	250	165000	41250000
Jami:				115 250 000.00

1.2. Ushbu shartnomaga bo'yicha yetkazilgan tovarlar uchun to'lov, mazkur shartnomaning 1.1 bandida belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

II. MAHSULOTNING NARHI VA SIFATI

2.1. Yetkazib berilayotgan tovarlarning sifati va amal qilish muddati shartnomani tuzish paytida ushbu turdag'i mahsulot uchun qo'yiladigan standartlar va texnik shartlarga muvofiq bo'lishi kerak. Mahsulotlarning yaroqlilik muddati umumiy saqlash muddatining 80 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

2.2. Agar tovarning sifati ushbu shartnomaga talablariga javob bermasa, Sotib oluvchi Sotuvchiga hisob fakturani imzolagan kundan boshlab 30 kun ichida da'vo ariza berish huquqiga ega. Sotib oluvchi mahsulotlarni saqlash shartlariga rivo'y qilishi shart. Mahsulotlarni noto'gri saqlash yoki sotib oluvchining harakati/harakatsizligi tufayli yuz bersa, buning uchun Sotuvchi javobgar bo'lmaydi.

2.3. Mahsulotlarni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish Sotib oluvchining omborida amalga oshiriladi va tomonlar imzolagan xisob-varak bilan tasdiqlanadi.

2.4. Mahsulotlarni qabul qilishda, Sotib mahsulotlarni shartnomaga hisob-varagi shartlariga muvofiqligini va assortimentini, miqdorini, to'liqligini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida yetkazib berilgan tovarlarning ko'rsatilgan hujjalarga mos emasligi aniqlansa, Sotuvchi tomonlarning kelishuviga asosan o'z mablaglari evaziga Sotib oluvchining omboriga mahsulotlarni almashtirish/ yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.5. Mahsulot sotuvchining omboriga qabul qilingandan so'ng, mahsulotlarning miqdori nomuvofiqligi bo'yicha e'tirozlar qabul qilinmaydi. Sotib oluvchi 30 kun ichida Sotuvchiga qabul qilish dalolatnomasidagi mahsulotlarni sifati bo'yucha asosli yozma talablarini, shuningdek mustaqil ekspertiza tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli

2.6. Yetkazib berilayotgan mahsulotlar davlat standartlar talablariga javob beradigan tayyor, konteynerlarga qadoqlangan bo'lishi kerak. Bu tovarlarni tashish va saqlash paytida buzilish yoki shikastlanishdan saqlaydi.

2.7. Mazkur shartnomaning 2.5 bandida ko'rsatilgan tartibda nuqsonli mahsulotlar yetkazib berilganligi tasdiqlansa, Sotuvchi 30 kun ichida nuqsonli tovarlarni sifatlari mahsulotlar bilan almashtirishi shart.

Sotuvchining talabiga binoen Sotib oluvchi rad etilgan tovarlarni qaytarishi kerak.

Ad虫lgan mahsulotlarni almashtirish yoki qaytarish bilan bo'g'liq barcha harajatlarni Sotib oluvchi to'laydi.

III. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI

3.1. Mahsulotlarni Sotib oluvchining omboriga o'zining kushi bilan yetkazib beriladi.

3.2. Mahsulotlarni topshirish, qabul qilish joyi Sotib oluvchining ombori hisoblanadi.

3.3. Mahsulotlarni topshirish muddati avans to'langan kundan boshlab 10 ish kunini tashkil qiladi

3.4. Sotib oluvchiga yetkazib berilgan maxsulot uchun barcha tegishli hujjalarni taqdim etgan holda xisob-varaqani rasmiylashtirish sanasidan Sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

3.5. Ushbu shartnomaning barcha shartlari calendar kifnigadan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqe'a sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

IV. HISOB KITOB QILISH TARTIBI

4.1. Mazkur shartnomaga bo'yicha tovarlarning umumiy narhi: **115 250 000** (Bir yuz o'n bes miliyon
ikki yuz ellik ming) **so'm 00 tiyin** tashkil qiladi

4.2. Yetkazib berilgan mahsulot uchun haq to'lash Sotib oluvchi tomonidan ushbu shartnomaga imzolangan kundan boshlab shartnomaga umumiy qiymatining 30% miqdorda oldindan amalga oshiriladi. Qolgan 70% mahsulot etkazib berilgan kundan 30 kun ichida xisob-varaqaga asosan to'lab beriladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1.. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlarni bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnomaga majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.2. Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan tovarlar qiyamatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan tovarlar yetkazib bergenlik uchun jarima yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi

5.3. But bo'limgan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi:

5.3.1. tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Etkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart;

5.3.2. bundan buyon tovarlarni butlab berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli;

5.3.3. yetishmayotgan qismlar qiyamatini qo'shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo'limgan tovarlar qiyamatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

5.3.4. Tovarlarni yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarni butlab bermasa, sotib oluvchi but bo'limgan tovarlarni qaytarib berishga hamda but bo'limgan tovarlarni but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir.

5.4. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib bergenlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga bunday tovarlar qiyamatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rav berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5.5. Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiyamatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

5.6. Tovarkar tanlab olinmagan (olish asosiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlari taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

5.7. Yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

5.8. Neustoyka (jarima, penya) to'laganligidan qat'i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o'zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

5.9. Xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan, shartnoma nazarda tutilgan hollarda yoki taraflarning kelishuviga binoan — hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

VI. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Tomonlarga bog'liq bo'limgan, oldindan oldini olish mumkin bo'limgan holatlarni shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidemiyalar, blokadarlar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yo'nginlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hijjat bilan tasdiqlangan holatlarda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

6.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'limgan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtidan 10 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

6.3. Agar fors-major holatlari to'g'risida o'z vaqtida xabar berikmagan bo'lsa, fors-major holatlarini boshidan kechidirgan tomon boshqa tomonga yetkazilgan zarar qoplashi shaart.

VI TARAFLARNING KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MA'SULIYATI.

7.1. Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.

7.2. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar(harakatsizlik)ga yo'l qo'yamaydilar.

7.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar: - pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;

- tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash; - pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish.

7.4. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar, jumladan:

- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatlari vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.

7.5. Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korruptsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.

7.6. Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinganda shuningdek, shartnomaning 5.1-bandida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir yetilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlari yoki qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

VIII. QO'SHIMCHA SHARTLAR

- 8.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralar amalidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.
- 7.2. Shartnoma taraflaridan hech biri boshqa tomonning roziligi siz ushbu shartnoma bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni uchunchi shaxsga berishga haqli emas.
- 8.3. Mazkur shartnoma tomonlar imzolangan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidagi ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab qonuniy huquqa kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.
- 8.4. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan taqdirda qonuniy huquqa kiradi.
- 8.5. Shartnoma taraflarning kelushuvi bilan, bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor kilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.
- 8.6. Hisob-Shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.
- 8.7. Taraflarni manzili yoki xisob raqamlari o'zgarmagan xollarda ushbu o'zgarish to'g'risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi.

VIII. TARAFLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Sotuvchi	Sotib oluvchini
<p>"FEEDEX PRO" MCHJ Manzil: Tuproqqala tuman K.Otaniyazov ko'cha 1-uy STIR: 308 039 394 H/R: 20208000705321790001 MFO: 01162 Bank: CHEKI Hamkorbank Xazorasp filiali</p> <p>Rahbar:  S.X. Alimboyev</p>	<p>Xazorasp tuman tibbiyot birlashmasi Manzil: G.G'ulom ko'cha 3-uy tel: 33-25-339 Sh/hr: 100022860332207073101054002 STIR. 200 419 760 OKONX: 91511 Moliya Vazirligi G'aznachiligi x/r: 23402000300100001010</p> <p>Bank: Markaziy bank Toshkent shahar XKKM MFO: 00014 STIR: 201 122 919 Rahbar:  O.R. Satibaldiye</p>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

HF6765823660

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Xo‘jalik munosabatlari**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: "HAZORASP TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI" tomonidan 10.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Hazorasp tuman
yuridik xizmat
ko'rsatish markazi
bosh
yuriskonsulti:**



I.X.XUDAYNAZAROV

11.10.2022